

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo`qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

RANGSHUNOSLIK
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 - Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110500-Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi

Fan/modul kodi Rash2404		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 2	Kreditlar 2	
Fan/modul turi Tanlov		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil Ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Rangshunoslik		30	30	60
2.	1. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – o‘rta umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablari uchun yetuk rassom-pedagoglarni tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Rangshunoslik fanini chuqur o‘rgatish. Shuningdek bo‘lajak rassom-pedagoglar rangshunoslik nazariyasi va uning amaliyotda qo‘llash va turli rang texnikalarni qo‘llagan tarzda ijodiy asarlar yaratish, rangtasvir asarlarini idrok etish kabi bilimlarga ega bo‘lish. Fanning vazifasi – talabalarda badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko‘rib yeslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish; san’at asarlariga nisbatan yestetik munosabatni, go‘zallikka bo‘lgan muhabbatni rivojlantirish. II.Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga kuyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: Rangshunoslik fani, uning maqsadi va vazifalari. Asosiy tushunchalar. Rangshunoslikling insoniyatni badiiy madaniyatini rivojlanishidagi o‘rni. Fizika va san’at nuqtai nazaridan rang va yorug‘lik munosabatidagi muammolar. 2-mavzu: Rangshunoslikning tabiiy ilmiy asoslari. Rang xaqidagi fanning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari. Rangning tabiiy xosil bo‘lishi. Rangning asosiy xarakteristikalar. Ranglarning uch komponentlik aralashmalarining nazariyasining asosi. Kolorimetriya asoslari. Rang tizimlari. Rangning kimyoviy asoslari. Ranglar (organik va noorganik bo‘yoqlar va pigmentlar, maxsus pigmentlar: marvarid, lyuminessent). Ranglar aralashmasi. Ranglarni optik aralashmasi. 3- mavzu: Rangni idrok etish xususiyatlari.				

Rangning insonga fiziologik ta'siri. Ko'zning tuzilishi. Rangning insonga psixologik ta'siri. M. Lyusherning test sinovi. Rangli uyushmalar. Rang simvolikasi. Rang spektri (rang doirasi). Spektral ranglarning fizikaviy xususiyatlari. Ranglarning o'lchamlari. Asosiy va qo'shimcha ranglar. Axromatik va xromatik ranglar. Rang kontrastlari. Tasviriy san'atdagi ranglar kontrastining ahamiyati. Ioxannes Itten tadqiqotlaridagi rang kontrastlarining turlari.

4-mavzu: Rangtasvirda rangshunoslik

Rang va bo'yoqlar; turli xil bo'yoqlar, organik va noorganik bo'yoqlar, pigmentlar; ularning kimyoviy va optik xususiyatlari; moddalarning rangga ta'siri; rang xususiyatlari; moybo'yoq, tempera, akril, akvarel yordamida bajarilgan asarlarda fakturani yaratadigan asboblari va cho'tkalar; rassom palitrasi chiroyli rang yaratish laboratoriyasi sifatida; ranglarni aralashtirish; ularning qo'llash orqali aralashtirish; qo'shimchali aralashtirish va rasmda alohida smear; rang tuzilishi turlarini tasniflash.

5-mavzu: Raqamli san'at va dizaynda rangning ahamiyati.

Asosiy rang modellari: RGB, CMYK, CIE Lab, HSB va x.k.. Rang xarakteristikasi: to'yinganligi, dinamik diapazoni, rang uzatgich qurilmalar gammasi, rangli qoplama. Rangni boshqarish va uning tarkibiy qismlari. Rangkorreksiya dasturiy ta'minoti. Adobe Photoshop (Adobe Creative Cloud) dasturida rangni boshqarish asoslari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Material: oq va biron bir tusga ega bo'lgan qog'oz(vatman), rangli pastel, sous, sangina, retush, akvarel, guash bo'yoqlari.

1. **Rang spektri.** Axromatik va xromatik ranglar. Asosiy va qo'shimcha ranglar. Rang doirasini bajarish. Ranglarni xosil qilishga qaratilgan rang doiralarni bajarish.

2. **Rang doirasi.** Rang va tus munosabatlari. 6 ta rangdan iborat bo'lgan rang doirasini bajarish.

3. **Rang gradatsiyalari.** Uch rangli gradatsiyasini bajarish (qizil, ko'k, qora). Applikasiya usulida rang gradatsiyalarini bajarish.

4. **Oq-qora kompozitsiyani bajarish** (oddiy geometrik shakllar asos qilib olinadi). Uch predmetdan iborat rang kompozitsiyasini bajarish (masalan, girixli kompozitsiya, stilizatsiya usulidagi natyurmort). Applikasiya usulida kompozitsiya yaratib ranglarni spesifik jixatlarini ko'rsatish.

5. **Kontrast ranglardan iborat kompozitsiyani bajarish** (oddiy geometrik shakllar asos qilib olinadi). Uch predmetdan iborat rang kompozitsiyasini bajarish (masalan, girixli kompozitsiya, stilizatsiya usulidagi natyurmort). Applikasiya usulida kompozitsiya yaratib ranglarni spesifik jixatlarini ko'rsatish.

6. Iliq ranglardan iborat kompozitsiya (oddiy geometrik shakllar asos qilib olinadi). Uch predmetdan iborat rang kompozitsiyasinibajarish (masalan, girixli kompozitsiya, stilizatsiya usulidagi natyurmort). Applikatsiya usulida kompozitsiya yaratib ranglarnispesifik jixatlarini ko'rsatish.

7. Sovuq ranglardan iborat kompozitsiya (oddiy geometrik shakllar asos qilib olinadi). Uch predmetdan iborat rang kompozitsiyasinibajarish (masalan, girixli kompozitsiya, stilizatsiya usulidagi natyurmort). Applikatsiya usulida kompozitsiya yaratib ranglarnispesifik jixatlarini ko'rsatish.

8. Axromatik ranglardan iborat kompozitsiya (oddiy geometrik shakllar asos qilib olinadi). Uch predmetdan iborat rang kompozitsiyasinibajarish (masalan, girixli kompozitsiya, stilizatsiya usulidagi natyurmort). Applikatsiya usulida kompozitsiya yaratib ranglarnispesifik jixatlarini ko'rsatish.

9. Xromatik ranglardan iborat kompozitsiya (oddiy geometrik shakllar asos qilib olinadi). Uch predmetdan iborat rang kompozitsiyasinibajarish (masalan, girixli kompozitsiya, stilizatsiya usulidagi natyurmort). Applikatsiya usulida kompozitsiya yaratib ranglarnispesifik jixatlarini ko'rsatish.

10. Grizayl usulida applikatsiya metodini qo'llagan tarzda kompozitsiya bajarish (masalan, girixli kompozitsiya, stilizatsiya usulidagi natyurmort). Applikatsiya usulida kompozitsiya yaratib ranglarnispesifik jixatlarini ko'rsatish.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruhiiy o'quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbaalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriiy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;

	- darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash; ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya yetiladigan mavzular 1.Rang spektri.Axromatik va xromatik ranglar; 2. Rang gradatsiyalari; 3.Dekorativ natyurmort bajarish(sovuq tushlarda); 4. Dekorativ natyurmort bajarish(iliq tushlarda); 5.Rang tabiatini o'rganish (fizikaviy va optik qonunlar). 6. Dekorativ marzara bajarish(sovuq tushlarda); 7. Dekorativ manzara bajarish(iliq tushlarda); Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya yetiladi.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilish kerak: • Rangshunoslik fanining tasviriy san'atda tutgan o'rni, rangshunoslik mashg'ulotlarini o'tishda kompozitsiya qonuniyatlari, odam va hayvonlar tasvirlashda rangning o'ziga hosligi, va ularning tasviriy san'atda tutgan o'rni, inson portretini tasvirlashda rangshunoslikning ahamiyati, va uning tasviriy faoliyatga aloqasi haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; (bilim). • Rangshunoslik darslarini rejalashtirish va tashkil yetish; inson tana a'zolarini tasvirlay olish; inson siymosini rangshunoslik jihatdan tahlil yetish va tasvirlash, mashhur rassomlar: jumladan, Mikelandjelo Buonarotti, Leonardo da Vinchi, Titsian, Matiss, R.Axmedov, kabi turli uslub va yo'nalishlarda ishlagan dastgohli, monumental asarlari, ularning turli texnik usul va uslublari; o'quvchi yoshlarga rangshunoslik mashg'ulotlarini tashkil yetishda san'at asarlarini tahlil eta olish, yaxshi o'zlashtiruvchi va iqtidorli o'quvchilar bilan individual darslar olib borish, o'quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish kabi <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; (ko'nikm).. • Rangshunoslik fanidan chuqur nazariy va amaliy bilim va malakalarga ega bo'lish, pedagogik faoliyat jarayonida rangshunoslikning tasviriy san'atga chambarchas bog'liqligi, insonning to'liq qomatini tasvirlay olishgacha bo'lgan ijodiy jarayonni tahlil qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash;

	• amaliy mashg‘ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.
6.	VSh.Asosiy adabiyotlar 1. S.Abdirasilov, N.Tolipov «Rangtasvir» o‘quv qo‘llanma. Innovatsiya ziyo, T. 2019. 2. S.Abdirasilov, N.Tolipov «Rangtasvir» o‘quv qo‘llanma. “Poligraf” T. 2017. 3.D.Tulanova Tasviriy san’at tarixi darslik. : –T.: «Lesson Press» nas’hriyoti, 2019. IX.Qo‘shimcha adabiyotlar 4.Mirziyoyev Sh.M. Yerkın va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz.Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016 yil 5.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taominlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil 6.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘shlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Halq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11 7.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil 8.Axmedov N.K. “Odam anatomiyasi” Atlas. Toshkent, 1996. 9.Baymetov B.B., Tolipov M.S. Plastik anatomiya. Kasb hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI 1. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm -

	fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF - 6108 - son farmoni. Axborot manbaalari 3. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti. 4. http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti. 5. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. 6. www.pedagog.uz 7. www.apkpro.ru/content/view 8. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten 9. www.relarn.ru/conf/conf2007 10. http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/ 11. http://www.allmath.ru/ 12. http://www.ziyonet.uz/ http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ullar: M.A.Ikromov - QDU, “San`atshunoslik” kafedrası PhD, S.Sattorova - QDU, “San`atshunoslik” kafedrası o`qituvchisi
9.	Taqrizchi: A.Amanullayev- NamDU p.f.n, dotsent. A.Bo‘tayev-QDU, Texnologik ta`lim kafedrası o`qituvchisi.